



AHMAD YUGNAKIYNING “HIBAT UL-HAQOYIQ” ASARIDA VOSITA KELISHIGI VA UNING MA’NO XUSUSIYATLARI

Dilobar Berdiyeva

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi
(+99897302-11-84)*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida vosita kelishigining qo'llanishi va uning ma'no xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *vosita kelishigi, ko'makchilar, affiks, kelishik, “Hibat ul-haqoyiq”, Ahmad Yugnakiy, ot so'z turkumi, birgalik kelishigi, Dod Sipohsolor bek, turkiy tillar, adabiyot.*

“Ahmad Yugnakiyning bizgacha yetib kelgan yagona asari “Hibat ul-haqoyiq” tarbiyaviy ahamiyatga ega badiiy asar hisoblanadi. “Hibat ul-haqoyiq” asari Dod Sipohsolor bekka bag'ishlab yozilgan. Bu haqda adibning o'zi “O'qiydigan kishining joni sevinsin deb,shohim madhi uchun kitob yozdim”,deydi. Asar nafaqat adabiyot balki iqtisod,falsafa, tarbiya kabi yo'nalishlarda ham tadqiq manbaya bo'lib xizmat qiladi. Asarning til xususiyatini o'rganish turkiy tillar,jumladan o'zbek tilining tarixiy grammatikasi haqida qimmatli ma'lumotga ega bo'lishimizda yordam beradi.

Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari tilida kelishik shakllari turlicha ma'nolarni ifodalaydi. Ayrim kelishiklar bir-birining o'rnida qo'llanadi. Asar tilida yettita kelishik mavjud bo'lib, bular-bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo'nalish kelishigi, chiqish kelishigi, jo'nalish kelishigi, o'rin payt kelishigi va vosita kelishigi. Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilida oltita kelishik mavjud va bu kelishiklar asarda qo'llanilgan kelishiklarga yaqin turadi. Biroq hozirgi o'zbek tilida vosita kelishigi mavjud emas. O'zbek tilida vosita kelishigi o'rnini ko'makchilar egallagan va vosita kelishigi ayrim so'zlar tarkibida yaxlit holatda saqlangan va yoki so'z yasovchi qo'shimcha sifatida qo'llanib kelinmoqda. Vosita kelishigi qo'shimchasi -in. Qishin, yozin kabi so'zlar tarkibida saqlangan. Bunday so'zlar juda kam miqdorda. Yuzin (yiqildi) so'zida -in qo'shimchasi ravish yasovchi sifatida qaraladi. Biroq bu qo'shimcha “bilan” ko'makchisi bilan almasha olishini hisobga olsak, yasovchi emas, aynan, vosita kelishigi ekani ma'lum bo'ladi.

Vosita kelishigi ba'zan vosita qurol kelishigi deb ham ataladi. Bu kelishik shakli shaxs yoki narsaning biror ishni bajarishida vosita sifatida ishlatiladigan qo'shimcha bo'lib, otga qo'shiladi. Masalan, ovqatni qoshiqla yedi. Bunda “qoshiq” so'zi tarkibidagi -la qo'shimchasi qo'shilishi natijasida qoshiqning vosita ekanligi anglashiladi. Bu hodisa turk tilida uchraydi. Vosita kelishigining shakli qadimgi turkiy tillar tarqqiyotining qadimgi davrlariga xos. Bu kelishik shakli qadimgi turkiy til davrida yaratilgan yozma yodgorliklarda uchraydi.



“Hibat ul-haqoyiq” asarida vosita kelishigi ot yoki ot o‘rnida kelgan so‘zlarning xarakteriga ko‘ra quyidagi affiksalar bilan ifodalanadi:

t/r	Vosita kelishigi shakli	Misol
1	-yn	Onun- o‘nlab,o‘ntasi bilan,o‘ntasi birgalikda
2	Yuzin Sozin (so‘zin)	Yuzi bilan... So‘zi bilan...
3	Fe‘lym	Fe‘li bilan...

Misollardan ko‘rinadiki, vosita kelishigi qo‘shimchasi ma‘no va vazifasi jihatidan “bilan” ko‘makchisiga to‘g‘ri keladi. Ma‘lumki, asar tili “Devonu lug‘ot at-turk” va “Qutadg‘u bilig” asarlarining tiliga yaqin. Lekin bu ikki yozma yodgorlikda vosita kelishigi “Hibat ul-haqoyiq”qa nisbatan ko‘proq qo‘llangan. “Hibat ul-haqoyiq” asarida vosita kelishigi sakkiz marta qo‘llangani olimlar tomonidan qayd qilingan.¹⁰⁴

Vosita kelishigi vazifasining asarda ko‘makchi so‘zlar orqali ifoda etilishi kuchaya borgan. Sababi, bir xil vazifa bajaruvchi ikki xil Grammatik kategoriyani qo‘llash uchun tilde zaruriyat yo‘q. Va bu parallel shakllarning biri kamroq qo‘llana borgan. Biroq bu kelishik shakli ba‘zi turkiy tillarda hozir ham mavjud. Orfografik jihatdan arab alifbosi kabi kabi uyg‘ur yozuvida ham qattiq, yumshoqlik bir xil ishora bilan beriladi.

Asarda vosita kelishigi quyidagi ma‘nolarni ifoda etadi:

1. Vosita ma‘nosi- **rasul erni otqa yuzinatquchi- rasul (payg‘ambar) kishini yuzi bilan o‘ga otuvchidir.** Bu o‘rinda “yuzin”-yuzi bilan, yuzi vositasida, ma‘nosida keladi. **Bir elkin tutub shahd,biri zahr qatar-bir qo‘li bilan asal tutib,bir qo‘li bilan esa zahar qorib beradi.** Elkin-qo‘li bilan, ya‘ni qo‘li vositasida. **Tiril ezgy fe‘lin konuller alip-yaxshi fe‘l bilan ko‘ngillarni olib yasha.** Misollardan ko‘rinadiki, vosita kelishigining asosiy ma‘nosi vosita ma‘nosidir.

2. Tartib ma‘nosi- **birin kelse rahat kelyr ranj onun-bir qur rohat kelsa, o‘nlab ranj,azob keladi.** Bu jumlada vosita kelishigi tartib ma‘nosini ifodalab kelgan.

3. Holat ma‘nosi- **səni tərkin əsiz qylıyğ‘lyıq qylur-seni tezlik bilan yomon qiliqlik qiladi.**

Ba‘zi yodgorliklarda vosita kelishigining qo‘shimchasi birgalik kelishigi o‘rida ham qo‘llanish holatlari uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muxtorov.A.,A.Sanaqulov U.O‘zbek adabiy tili tarixi.-T.:O‘qituvchi,1995.61-b
2. Tursunov.U.,O‘rinboyev.B.,Aliyev.A. O‘zbek adabiy tili tarixi.-T.:O‘qituvchi,1995.61-b
3. Begmatov.E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.-T.:Fan,1985.
4. Mahmudov.Q. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari haqida.-T.: Fan,1972.

¹⁰⁴ Mahmudov.Q. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari haqida. Toshkent., Fan,1972-y. 98-b.



5. Seitniyazov, K. M. (2023). Some traditional names in Toponymics. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(4), 842-845.
6. Karimovna, K. K. (2023). Taking the Education System to a New Level with the TALIS International Assessment Program and Action Strategy. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(4), 245-249.
7. Arslonovna, J. Z. (2023). Methodology for developing engineering skills of students through solving experimental problems. *Open Access Repository*, 9(5), 210-213.
8. Xusnuddinova, Z. (2022). Corrective pedagogy for blind children cluster mechanisms to increase work efficiency. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 68-70.